

BOSHLANG'ICH TA'LIM TABIIY FANLARIDA EKSKURSIYA DARSLARI.

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi.

Alimardonova Mo'tabar Xolmo'minovna

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

To'ychiyeva Sabina Azamat qizi

Kalit so'zlar: ekskursiya, tabiiy fanlar, daraxtlar, maktab, o'qituvchilar, o'quvchilar, tabiat

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarning tabiiy fan darslarida ekskursiyalar qanchalik samarali bo'lishi haqida so'z boradi. Shu qatori bolalarning ekskursiya orqali fanga bo'lagan qiziqishlarini yanada ortishi shu fanni chuqurroq o'rganishlari sabab bo'lishi haqida aytib o'tilgan.

Ключевые слова: экскурсия, естественные науки, деревья, школа, учителя, ученики, природа

Аннотация: В статье обсуждается эффективность экскурсий на уроках естествознания в начальной школе. В статье также обсуждается, как можно повысить интерес детей к науке с помощью экскурсий, что приведет к более глубокому изучению предмета.

Keywords: excursion, natural sciences, trees, school, teachers, students, nature

Annotation: This article discusses the effectiveness of excursions in natural science lessons in elementary grades. It is also mentioned that the increased interest of children in science through excursions leads to a deeper study of this subject.

Yurtimizda tabiatni asrash avaylash unga zarar yetkazmaslik, daraxtlarni kesmaslik uchun katta chor tadbirlar kurib borilmoqda. Yuqolib borayotgan noyob o'simliklarni muhofaza qilish ularni asrash chora tadbirlari keng miqiyosda kurib chiqilmoqda. Shu munosabati bilan prizdentimiz Shavkat Mirziyoyev ham 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi.

Bilamizki, nafaqat yurtimizda balki, boshqa mamlakatlarda ham havo va suvlarning ifloslanishi, global darajada issiq bulib ketishi, tabiiy ofatlari ko'payib bormoqda. Shu sababli nafaqat o'zimizda balki, boshqa mamlakatlarda ham atrof muhitni asrash chora tadbirlari kurib borilmoqda. Yosh-u qari tabiatni asrash uni muhofaza qilish uchun o'z hissalarini qushishmoqda. Har bir uylarda, mahallalarda, kuchalarda, oliygohlarda, maktablarda, korxonalarda atrof-muhitni asrash yon atrolarida kuchatlar o'tqazish chora tadbirlari kurib borilmoqda.

Shunday ekan biz kattalar yoshlarga o'rnak bulishimiz ularga tabiatni asrash kerakligi haqida yoshliklaridan boshlab o'rgatib borishimiz kerak. Hozirgi kunda maktablarimizdagi darsliklar ham ayanan shu borada boshlang'ich sinflarning tabiiy fanlar kitoblarida ham tabiatni sevishga uni asrashga, o'simliklar dunyosi, hayvonot olami va shunga uxshash mavzularni kurishimiz mumkin. Boshlang'ich sinf tabiiy fan darsliklarida ko'proq amaliy topshiriqlar har xil tabiat quyida ekskursiyalarga, kurgazmaliliklar keltirib o'tilgan. Bular bolalarni tabiati sevish uni asrashga uni parvarish qilishga o'rgatadi. Boshlang'ich sinflarning tabiiy fan darslarida bolalarni tabiat quyida ularning havsizligini taminlagan holda olib chiqilsa, har xil dorivor o'tlar bilan darxtilarning turlari bilan tanishtirish fanga bulgan qiziqishini yanada ortiradi. Bunday ekskursiyalar o'quvchilarni darsga bulgan qiziqishlarini oshiradi. Darslarni yanada o'zlashtirishlariga sabab buladi.

Ekskursiya darslarida bolalar bilan birgalikda kuchatlar o'tqazilsa, ular bitta kuchat o'tqazishda qancha mashaqqat mehnat borligi ko'rishsa, daraxtlarni sindirish kerak emasligini tushunishadi. Ekskursiya davomida bolalar darsni yana yaxshi o'zlashtirishlari, keyinchalik bu borada o'zlari uylarida ham kuchatlar yoki biror bir o'simlikning parvarish qilganliklarini haqida sinfdoshlariga hamda o'qituvchilariga so'zlab berishlari mumkin. Ekskursiyalar o'quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirish, atrof-muhitni asrash, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida fanga bo'lgan qiziquvchanlik xususiyatlarini shakllantirish orqali bolalar fani yana o'zlashtirishlarida katta yordam beradi. Albatta, ekskursiya davomida o'quvchilarning havsizligini taminlagan birinchi o'rinda turadi, bunda o'qituvchi yanada e'tiborlidir bo'lishi zarur. Agar o'quvchilarni ekskursiyaga olib chiqish imkoni bo'lmagan hollarda sinf xonalarda ham ko'rsatish mumkin ekan. Masalan sinf xonaning o'zida tuvakka biror gul yoki nihol ekib ko'rsatish mumkin. O'quvchilar uylaridan har xil urug'lar olib kelib uni birgalikda sinf xonada ekishlari va uni necha kunda kurtak ochishini necha kunda o'sib chiqishini kuzatishlari o'zlari tajriba olib borishlari mumkin. Sinf xonalarga gul olib kelish kerak bulsa xuddi o'quvchilarga turli xil gul urug'larini olib kelishlarini aytib, ularni ekanman so'ng qaysi gul urug' necha kunda ochilishi o'sib unishini guvohi bo'lishlari mumkin. Bularning barchasi albatta tabiiy fanlar darslarida bo'lib o'tadi. Bunday mashg'ulotlar nafaqat bolalarni yoshi kattalarga ham qiziqish uyg'otadi. Shunda o'quvchilar tabiatni sevish uni asrash kerakligi haqida tushunishadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilarni tabiatni sevishga uni asrashga yoshliklaridan qiziqtirib o'rgatib borishimiz kerak bo'ladi. Albatta, biz kattalar bularga o'rnak bo'lgan holda eng avvalo o'zimizdan boshlashingiz kerak. Bizning doim sinf xonaning o'zida dars o'tishimiz o'quvchilarning darsga bulgan ishtiyoqini so'ndirishi darsdan tezda zerikishlariga olib kelishi mumkin. Shunday ekan o'quvchilarning tabiat quyida sayr qildirish, ekskursiyalar tashlik etish, shu qatorida o'quvchilarning havsizligini ta'minlash o'qituvchilarning

asosiy vazifasi hisoblanadi. Bunday turdagi ekskursiyalar o'quvchilarning ijodkorliklari, o'zlaridagi yashirin qobiliyatlarini ham ochib berishi hatto darsga qiziqmagan o'quvchilarning ham qiziqishlariga sabab bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ta'lim taraqqiyoti. Boshlang'ich ta'lim, «Sharq» 1999-yil, 7-maxsus son.
2. Rustam Jo'raqulov. Boshlang'ich ta'limning bugungi kundagi dolzarb muammolari. Ta'lim va taraqqiyot. 25.06.2016.
3. Boshlang'ich sinf darsliklar: Tabiiy fan 1-2-3-4-sinflar